

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN NEFT VA GAZNI KOMPLEKS TAYYORLASH, TASHISH VA SAQLASH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Neft va gazni kompleks tayyorlash, tashish va saqlash fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Neft va gazni kompleks tayyorlash, tashish va saqlash

1. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy bosqichlari;
2. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari;
3. Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy uskunalari
4. Neft va gazni tashish;
5. Neft va gazni saqlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy bosqichlari	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy yo'nalishlariga doir masalalar yechishini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	32,5 %	13 ta
2	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy jarayonlari bobiga oid masalalar yechish. hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish. Qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	22,5 %	9 ta
3	Neft va gazni kompleks tayyorlashning asosiy uskunlari	Neft va gazni kompleks tayyorlash jarayonlarining asosiy uskunlari boblariga oid masalalar yechishni bilish. Qonun va qonuniyatlarni hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	17,5 %	7 ta
4	Neft va gazni tashish.	Neft va gazni tashishga doir masalalar yechishda qonuniyatlarni to'g'ri qo'llash. Neft va gazni tashishning turlari va usullarini tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	12,5 %	5 ta
5	Neft va gazni saqlash.	Neft va gazni saqlash bobiga doir vaziyatlarni yechish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish. Neft va gazni saqlashning usullari tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	15 %	6 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. 1. O.G'.Hayitov, S.P.Abduraxmanova, O.Sarmanov, Z.Ya.Ravshanov
Magistral neft va gaz quvurlari va kompressorlar . Darslik. Toshkent - 2023.

2. Транспорт и хранение нефти, нефтепродуктов и газа. Бунчук В.А.
Издательство «Недра» , М.1976,

3. Проектирование и эксплуатация газонефтепроводов. Рудаченко А.В.
Томск. ТПУ. 2008.